

**RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI MUHOFAZASI: YEVROPA ITTIFOQINING
RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH
HUQUQLAR DIREKTIVASI MISOLIDA**

Bahromov Lazizjon Azizjon O'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kunda O'zbekistonda hamda Yevropa Ittifoqida raqamli texnologiyalar asrida mualliflik huquqi muhofazasining holati va jarayonlari, xususan bunda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning o'rni misolida berilgan ba'zi takliflar borasida so'z boradi. Maqolada qabul qilingan qonunlar va bajarilishi kutilayotgan ishlar xususida fikrlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *turdosh huquqlar, Yevropa ittifoqi, obyektlar, mulkiy huquqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqlar va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bo'g'liq holda yuzaga keladigan munosabatlar mualliflik huquqi, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlarini yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bo'g'liq holda yuzaga keladigan munosabatlar esa turdosh huquqlar deb yuritiladi [1].

Raqamli muhit deb internet olamidagi ma'lumotlar almashinuvi deb yuritiladi. Bir so'z bilan aytganda bu sun'iy intellektidir. Sun'iy intellekt deyilganda ko'pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishi deb tushuniladi. Ammo sun'iy intellekt atamasi inson o'rnini bosuvchi robot ma'nosini anglatmaydi. Ko'pchilik sun'iy aql vazifasini bajaruvchi omil sifatida qaraydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirish va ochib berish hisoblanadi. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi. Avvallari "sun'iy intellekt" atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo'lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki shaxmat o'ynash vazifalarni bajarish uchun qo'llanilgan. Shuningdek, komputer texnologiyalarini chuqur o'rganishga ham sun'iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko'rsatish, turli onlayn o'yinlar va komputer texnologiyalarini chuqur o'rganish kabilar sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To'g'ri, sun'iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun'iy intellekt bilan odamlarning

xarakterini, o'quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo'lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin [2].

Material va metodlar.

Raqamli texnologiyalar, shu jumladan internetning jadal rivojlanishi barcha davlatlarning intellektual mulk tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda va bir paytning o'zida raqamli muhitda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarning samarali muhofazasi va himoyasi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish borasida xorijda va yurtimizda keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, mualliflik huquqiga tegishli ko'p turdagi obyektlarning (adabiy va musiqa asarlari, filmlar) raqamli formatga o'tkazilishi, muzey kolleksiyalarining raqamli formatga o'tkazilishi intellektual mulkning internetda keng targ'ib qilish imkonini berdi. Shuningdek, dasturiy ta'minot, patent qonunchiligi yoki mualliflik huquqi bo'yicha qonunchilik tomonidan muhofaza qilinuvchi intellektual mulkning bir turi sifatida raqamli muhitda keng qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, raqamli muhit, shu jumladan internet tarmog'i, bugungi kunda elektron savdo, ta'lim, madaniyat makoni, shuningdek mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan asarlarni tarqatish makoni bo'lib xizmat qilmoqda. Boshqa tomondan esa bu axborot almashinuvi jadal kechayotgan tizim bo'lib, bunda ko'p holatlarda mualliflar va intellektual mulk egalari huquqlarining buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Bu esa o'z o'rnida qator kelishmovchiliklarga va muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ulardan keng tarqalganidan biri bu ilmiy ishlarni o'zlashtirib olish bilan bog'liq bo'lgan mualliflik huquqlarini buzilishidir. Afsuski, bu masala o'z yechimini topmasdan qolmoqda. Bu borada turli ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, internet brauzerlaridan qidiruv berilganda ba'zi ommaviy saytlarda ta'qiqalar qo'yilgan shunday saytlardan biri bu fayllar.org dir. Bu saytga kirishingiz bilanoq u sizni mualliflik huquqini buzish haqida ogohlantiradi hamda materiallar xavfsiz saqlanadi.

Bunday sharoitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid fundamental prinsiplarning raqamli muhitda amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etadi, bu esa o'z navbatida intellektual mulk muhofazasiga, bu sohada huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishini talab qiladi.

Muallif asarini oshkor qilish to'g'risida ilgari qabul qilgan qaroridan, asardan foydalanish huquqini olgan shaxslarga ular shunday qaror tufayli ko'rgan zararlarning o'rnini, shu jumladan, boy berilgan foydani qoplash sharti bilan, voz kechish huquqiga (asarni chaqirib olish huquqiga) egadir. Agar asar oshkor qilingan bo'lsa, muallif uni chaqirib olganligi to'g'risida ommaga ma'lum qilishi shart. Bunda u asarning avval tayyorlangan nusxalarni o'z hisobidan muomaladan olib qo'yishga haqlidir. Bu qoidalar agar muallif bilan tuzilgan shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, xizmat asarlariga nisbatan tadbiriq etilmaydi.

Asarni nashr qilish, omma oldida ijro etish yoki undan boshqacha tarzda foydalanishda asarning o'ziga, nomiga va muallifning ismi-sharfi ko'rsatilishiga biron-bir o'zgartirish kiritishga faqat muallifning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish amaliyoti mavjud emas. Bir qator xorijiy mamlakatlar amaliyotida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish amaliyoti joriy etilgan. Albatta, asarlarni ro'yxatdan o'tkazish majburiy ahamiyat kasb etmasada, bu turli nizoli holatlarni oldini olishda hamda mualliflikni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Albaniya, Belarus Respublikasi, Braziliya, Kanada, XRR, Fransiya, Hindiston, Yaponiya, Keniya, Meksika, Portugaliya, Ispaniya, AQSH kabi mamlakatlarda bu singari amaliyot joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1056-moddasiga ko'ra, muallifga asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlar tegishlidir. Ushbu kodeksga ko'ra, intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk ob'ektidan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi [3].

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlarida mualliflik huquqi ob'ektlari ulushini hosil qilish va oshirib borish uchun fikrimizcha birinchi navbatda uning huquqiy himoyasi masalalarini ta'minlash lozim. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan asosan mulkiy huquqlarni boshqarish bilan bog'liq tadqiqotlar nazariy nuqtai nazardan cheklanilgan.

Eng muhimi, bugungi kunda mualliflik huquqi ob'ektlari o'zining tarmoq yo'nalishlaridan (a) adabiyot va noshirlik, b) musiqa va teatr, c) kino, d) radio va televideniya, e) fotografiya asarlari, f) EHM va ma'lumotlar bazalari, g) vizual va grafik ishlar, h) reklama xizmatlari, j) mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda

boshqaruvchi tashkilotlar) kelib chiqib, rivojlangan xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida katta o'rin tutmoqda. Xususan, 2019 yilda AQSH yalpi ichki mahsulotida mualliflik huquqi sanoati ulushi 2,5 trillion (2,568,23 mlrd) AQSH dollariga yetib, mamlakat iqtisodiyotini 11,99 foizini tashkil etgan. Shuningdek, Mualliflar va bastakorlar xalqaro konfederatsiya (CISAC) 130 dan ortiq mamlakatdan 250 dan ortiq mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarini birlashtirgan bo'lib, 2017 yilda ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan yig'ilgan mualliflik haqlari miqdori 447,8 mln AQSh dollarini tashkil etgan [4].

Tarixga nazar tashlasak, dastlabki bu kabi tashkilot 1777-yilda tashkil etilgan va Dramaturglar huquqiy himoya qilish byurosi deb nomlangan. Ushbu byuro "Figaroning uylanishi" nomli mashhur asar muallifi Pe'r de Bomarshe tomonidan tashkil etilgan. Jahon tajribasida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish ikki xil tizimda tashkil etiladi. Birinchisi raqobat tizimi bo'lib, bunda faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, turli shu tusdagi tashkilotlar tuzilishiga yo'l qo'yiladi. Ikkinchisi esa monopolistik tizim bo'lib, bunda mamlakatda

faqatgina yagona mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot tuzilishi belgilangan.

Tadqiqot natijalari.

Shandong Universiteti Huquq maktabi tadqiqotchisi Chenyi Zhao AQSh (raqobat tizimi) va Germaniya, Italiya (monopol tizim) davlatlarini ushbu yo'nalishlarga misol sifatida keltirgan. Shuningdek, ushbu ro'yxatga Yaponiya, Meksika, Norvegiya, Pol'sha, Shvetsiya, Daniya davlatlarini ham kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi bir davlatlarda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar davlat ko'magida tashkil etilish amaliyoti ham mavjud (Masalan, Rossiya Federatsiyasi) [5].

Ma'lumki, raqamli texnologiyalari taraqqiyoti jadallashgan bugungi kunda mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan asarlar himoyasini ta'minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Zero, muallif yoki huquq egasi tomonidan asarni himoyasini ta'minlash juda qiyin va moliyaviy jihatdan juda qimmat, kerak bo'lsa aytish mumkinki imkonsiz hisoblanadi. Zero, simsiz aloqa vositalaridan foydalanish darajasi va doirasi juda keng. Har bir foydalanuvchi bilan kelishish va monitoring qilish masalalari haqida o'ylab ko'rishning o'zi yetarlidir. Ayniqsa chegara bilmas internet (virtual) muhitining rivojining o'zi buni yaqqol tasdiqlaydi. Bu jarayonda o'z-o'zidan bozor munosabatlari elementlari ham muhim rol o'ynaydi. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish tashkilotlari yuqoridagi muammoni hal qilishda hamda bozor munosabatlari ishtirokchisi sifatida bu borada muhim o'rin tutadi.

O'rganilgan tadqiqotlar natijasi o'laroq butun jahonda mualliflik huquqini himoya qilish borasida ko'plab usullar yaratilmoqda va tizimlar ishga tushirilmoqda.

Muhokama.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va YUNESKO tomonidan mualliflik huquqida jamoaviy boshqaruvni rivojlantirish yuzasidan ko'p bor ta'kidlab kelishmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Evropa Ittifoqi Hamjamiyatining so'nggi yillardagi direktivalarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarishga doir masalalar asosiy joyni egallab kelmoqda [6]. Xususan, 2014-yil 26-fevralda Yevropa Ittifoqi parlamenti va kengashining 2014/26/EU-son "Yevropa Ittifoqi hududida musiqiy asarlardan hududlararo foydalanishni litsenziyalash"ga doir direktivasi qabul qilingan. Mazkur direktiva huquq egalari mualliflik va turdosh huquqlarga bo'lgan mulkiy huquqlarini yuqori darajada himoyalashga sabab bo'ldi. Shuningdek, ushbu hujjat ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar tomonidan mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish bilan birga, mualliflik shartnomasini ham alohida ta'kidlashadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda asarlardan foydalanish uchun imkoniyati cheklangan shaxslarga sharoitlar tug'dirish muhim sanaladi. Bu borada ayniqsa, Ko'zi ojiz, ko'rishda nuqsoni bo'lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan

shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to'g'risidagi Marokash shartnomasi (2013-yil

27-iyun, Marokash) muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish, xuddi intellektual mulkning boshqa obyektlari kabi muhim sanaladi. Xalqaro darajada huquqi muhofazani biz, tovar belgisi (Madrid tizimi) va ixtiro (PCT tizimi)da ko'rishimiz mumkin.

Avstraliya Mualliflik huquqi kengashi majburiy litsenziyalashni TDM muammosining potentsial yechimi sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi. Ijodiy sohalarning o'z ishlaridan sun'iy intellekt dasturlarida, ayniqsa tijoratda foydalanish uchun kompensatsiya olish istagiga hamdard bo'lgan holda, quyidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, ularning hech birini litsenziyalash modellari (individual litsenziyalash, ixtiyoriy jamoaviy litsenziyalash, majburiy va kengaytirilgan jamoaviy litsenziyalash) muammoning hayotiy va oqilona yechimi bo'la olmas ekan [15. 127–132]. SI ni individual litsenziyalash – litsenziyalashning bir turi sifatida individual litsenziyalash mashinani o'rganish bo'yicha ba'zi loyihalar yoki hatto sektorlar uchun amaliy yechimdir, ammo boshqalar uchun mutlaqo nomaqbuldir. Ba'zi yirik texnologiya kompaniyalari katta hajmdagi ma'lumotlar bazalariga mavjud kontentga ega bo'lishi mumkin va ularga kontentdan istalgan maqsadlarda, jumladan, mashina o'rganishda foydalanishga ruxsat beruvchi individual litsenziya shartnomalariga ega bo'lishi mumkin [16. 48–52]. Noshirlar, ovoz yozish va kino ishlab chiqaruvchilari, media kompaniyalari kabi kontentga boy ob'ektlar, shuningdek, o'z ma'lumotlarini SI ishlab chiquvchilari uchun litsenziyalashi mumkin.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, yurtimizda va jahon mamlakatlarida mualliflik huquqini himoya qilish va unga doir ko'plab qaror va farmoyishlar ishlab chiqilmoqda hamda so'nggi yillarda qilinayotgan say-harakatlar va choralar o'z samarasini bermoqda. Bu esa o'z navbatida yurtimizda huquqlarni himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar, jahon hamjamiyati bilan hamkorliklarning mustahkamlanayotganining samarasi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasi yo'nalishidagi tadqiqotlardan kelib chiqib, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatiga oid quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, raqamli muhitda mulkiy huquqlarni himoya qilish borasida virtual olamdagi xavfsizlik tizimini ta'minlashi lozim.

Ikkinchidan, muallif, huquq egasi istalgan vaqtda huquqi buzilgani yoki buzilmagani bo'yicha maxsus sayt orqali xabardor bo'lib turishi kerak.

Uchinchidan, muallif, huquq egasi hamda huquqiy tashkilot o'rtasida mualliflik huquqi buzilishiga yo'l qo'ymaslik borasida o'zaro ikki tomonlama shartnoma tuzilishi lozim.

Ushbu takliflar bo'yicha ishlarni to'g'ri va tizimli tarzda yo'lga qo'yilishi, o'ylaymizki mualliflik huquqini raqamli muhitda himoyasini ta'minlashga bu orqali esa ijodkorlar

mehnati uchun tegishli haqlarni to'lanishiga hamda madaniyat va san'atni mualliflik huquqiga doir qoidalar asosida rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, [National Legislative Database] 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son.
2. Copyright Industries in the US Economy. [Available at: <https://www.iipa.org/files/uploads/2020/12/2020-IIPA-Report-FINAL-web.pdf>]
3. Юлдашов А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари //Юрист ахборотномаси. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-64.
4. Yuldashov A. Intellectual property law policy in Uzbekistan //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 12. – С. 80-85.
5. Collective Management of Copyright and Related Rights [Available at: <https://www.wipo.int/copyright/ru/management/index.html>].
6. Zijian Zhang. Rationale of collective management organizations: an economic perspective. doi 10.5817/mujlt2016-1-4. P.75.
7. Collective Management of Copyright and Related Rights, World Intellectual Property Organization (last visited May 11, 2017), [Available at: <http://www.wipo.int/copyright/en/management/>].
8. World Trade Organization (WTO) [Available at: <https://wipolex.wipo.int/ru/text/329636>].
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi yillik hisobotlari [Available at: <http://www.ima.uz/uz/nashrlar/yillik-hisobot/>].
10. Directive 2014/26/EU of the European Parliament and of the Council. of 26 February 2014. On collective management of copyright and related rights and multiterritorial licensing of rights in musical works for online use in the internal market (Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legalcontent/EN/TXT/?uri=celex%3A32014L0026>)
11. Юлдашов А. Кутубхона, рақамли контент ва муаллифлик ҳуқуқи //Information Library Magazine'INFOLIB'. – 2022. – №. 4.
12. International Confederation of Societies of Authors and Composers . As of January 1, 2001, CISAC had 181 member [1998] 2 F.C. .22 organizations, though not all would qualify as active CMOs.
13. Юлдашов А.А. Роль организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе, в обеспечении защиты авторских прав: опыт Узбекистана и мира //Цифровая среда и политика университетов в сфере интеллектуальной собственности. – 2021. – С. 198-205.

14. Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/с. – С. 511-522.

15. Юлдашов А. Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг бу борада тутган ўрни //Юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59.

16. Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/с. – С. 511-522.

17. Yuldashov A., Usmonov V. Copyright protection in telecommunications networks: the example of blockchain technology //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 4. – С. 22-29.